XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-87-166-9-130-K/23 Guliston shahar hokimligi

2024 yilgi shahar mahalliy budjetini tasdiqlash hamda shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24, 25-moddalariga, Budjet Kodeksining 99-moddasiga, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonunga muvofiq, Sirdaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/38/1021-sonli xati hamda Sirdaryo viloyati xalq deputatlari kengashining 2023 yil 29-dekabrdagi VI-60-194-9-0-K/23-sonli Qarorini inobatga olib 2024 yilgi shahar mahalliy budjetini tasdiqlash hamda shahar mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Guliston shahrining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2. Shaharning shahar mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Shahar mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024 yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston

Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (bundan buyon – Qonun) shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 5-ilovaga muvofiq;

Shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjetli daromadlari prognozi hamda xarajatlari ijrosi natijasidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonun bilan belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun:

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 7-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 8-ilovaga muvofiq;

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanishi belgilanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Qonunning 6-moddasi bilan viloyat budjetidan 2024 yilgi shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 44 512 652.0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024 yil uchun shaharning shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 873642.0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar budjetining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

7. Shahar budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda shahar mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Budjet xarajatlarini qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet

mablag‘larini oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi.

8. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

aylanmadan soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra shahar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

Qonunga muvofiq Xalq deputatlarishahar Kengashi:

shaharning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Guliston shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat mahalliy budjetiga o‘tkazilishi belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq

miqdorida bazaviy soliq stavkasi 9-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Shahar mahalliy budjetlarining 2024 yil uchun aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari 11-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

Shahar mahalliy budjet tashkilotlari tegishli budjetlarini birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantiradi.

12. Shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 (besh) foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushishi ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan Sirdaryo viloyat hokimligiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

13. Qonunga muvofiq hududda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra xalq deputatlari shahar Kengashi qarori bilan ma’qullanganidan so‘ng shahar hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

Issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab shaharning shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

14. Budjet jarayonini ochiqligini ta’minlash maqsadida shahar hokimliklari har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlariga:

Shahar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni;

kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari;

davlat xaridlari;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 (o‘ttiz) foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi natijalarini joylashtirilishini ta’minlasin.

15. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (G‘.Botirov) zimmasiga yuklatilsin.

16. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi (A.Urdishev)ga yuklatilsin.

17. Ushbu qaror 2024 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **T.T.Dadabayev**

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
1-ilova

Guliston shaharining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2024yil Uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlari o‘sish sur’ati, foizda	104,1%
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	100,6%
3.	Bozor xizmatlari o‘sish sur’ati, foizda	118,4%
4.	Qurilishishlar io‘sish sur’ati, foizda	107,2%

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Guliston shahri bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	Summa(ming so‘mda)
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7960814
2	Aylanmadan soliq	22116364
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	5290864
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7170556
5	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	94883
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13202481
7	Ijara to‘lovlari	413245
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1957094
9	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	646650
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	861176
	JAMI	**59714127**
	Jam itransfertlar*	**44512652**
	Shundan: Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolga aksiz solig‘I (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o’tkazib beriladigan daromad	**16706890**
1	Alkogolga aksiz solig‘I (shu jumladan pivo)	7241890
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2917050
3	Tamaki mahsulotari uchun aksiz solig‘i	6547950
	JAMIDAROMAD	**104226779**

** tamaki, alkagolmahsulotlari, shujumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘I bo‘yicha transfertlarni inobatga olgan holda.*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Guliston shahar budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag‘larining umumiy cheklangan miqdorlari

mingso‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**104226779**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	**86135247**
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**15988972**
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi	**1228918**
	Zaxira jamg‘armasi	**873642**
1	**Maktabgacha va maktab ta‘limibo‘limi**	**21127101**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	21127101
2	**Sog‘liqni saqlashbo‘limi**	**2119328**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2119328
	Davlat sanitariya epidemiaologiya va osoyishtalik markazi saqlash xarajatlari	*2119328*
3	**Madaniyat bo‘limi**	**6345734**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	6345734
	Madaniyat bo‘limi saqlash xarajatlari	*115201*
	Boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar va tadbirlar saqlash xarajatlari	*162190*
	Madaniyat markazlari saqlash xarajatlari	*1151080*
	Bolalar musiqa va san’at maktabi saqlash xarajatlari	*4917263*
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**9 484 824**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	9 484 824
	Shahar sport maktabi	*6 744 964*
	Yoshlar ishlari agentligi	*2 739 860*
5	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**798615**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	798615
6	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**28871027**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	24871027
	Ichki xo'jalik avtomobi lyo'llarini ta'mirlash xarajatlari	*4000000*
7	**Shahar hokimligi**	**24696739**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	24696739
	Shahar hokimligining saqlash xarajatlari	*2903043*
	Xalq qabul xonasining saqlash xarajatlari	*670368,0*

	Xalq deputatlari kengashi kotibiyatining saqlash xarajatlari	*236951*
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi saqlash xarajatlari	*2575463*
	Ijtimoiy ko'nikma markazi saqlash xarajatlari	*200292*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	*19090*
	"Mahalla budjeti" jamg'armasi	*1228918*
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	*15988972*
	Zaxira jamg'armasi	*873642*

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2234643**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2234643
9	**Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikga ko‘maklashish bo‘limi**	**3828465**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	3828465
	Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikga ko‘maklashish bo‘limi saqlash xarajatlari	*2161208*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi saqlash xarajatlari	*1667257*
10	**Shahar Soliq inspeksiyasi (bo‘limi)**	**4720303**
	Shu jumladan:	
	joriyxarajatlar	4720303

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
4-ilova

Guliston shahar mahalliy budjetining 2024 yil uchun shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad*	Xarajat
JAMI	**104226779**	**104226779**
Guliston shahri	104226779	104226779

*Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda.

Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024 yil uchun Guliston shahar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

T/r	Shahar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yersolig‘i	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektrstantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Ijara to‘lovlari	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Guliston shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	3

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
6-ilova

Guliston shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar nomi	Tartibga soluvchi transfertlar miqdorlari
JAMI	**44 512 652**
shundan	
Guliston shahri	44 512 652

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
			Guliston shahri
1.	**Uy-joylar:**		
	turar joy	Umumiy maydonning 1kv.metri uchun	12 000
	noturar joy		23 500
2.	**Avtomobil transporti:**		
	Yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1ta avtotransport vositasi uchun	780 000
	Mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 550 000

Izoh:*Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**
	Guliston shahri
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladiganyig‘im	840000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	420000

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
9-ilova

Guliston shahrida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

mingso‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient(0,7 dan 1,3 gacha)	Yersolig‘istavkasi 2024 yiluchun(1 ga uchun)
1	Axillik MFY	1,00	35100,0
2	Bahor MFY	0,80	28080,0
3	Baxt MFY	1,00	35100,0
4	Bog‘ishamol MFY	1,00	35100,0
5	Bo‘ston MFY	0,90	31590,0
6	Buyukkelajak MFY	1,00	35100,0
7	Do‘stlik MFY	0,90	31590,0
8	Ibratli MFY	0,80	28080,0
9	Istiqlol MFY	0,90	31590,0
10	Madaniyat MFY	0,90	31590,0
11	Ma’naviyat MFY	0,90	31590,0
12	Navbahor MFY	1,00	35100,0
13	Na’muna MFY	1,00	35100,0
14	Nihol MFY	1,00	35100,0
15	Nurafshon MFY	1,00	35100,0
16	Obod yurt MFY	1,00	35100,0
17	Sayqal MFY	1,00	35100,0
18	Sohil MFY	1,00	35100,0
19	Taraqqiyot MFY	1,00	35100,0
20	Ulug‘yo‘l MFY	0,90	31590,0
21	Ulug‘obod MFY	0,90	31590,0
22	Shodlik MFY	1,00	35100,0
23	Yuksalish MFY	0,80	28080,0
24	Yangi hayot MFY	1,00	35100,0

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
10-ilova

Guliston shahrida jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisent(0,7dan3gacha)	Yer solig' stavkasi 2024 yil uchun (1kv. uchun)
1	Axillik MFY	1,0	253,0
2	Bahor MFY	0,8	202,4
3	Baxt MFY	1,0	253,0
4	Bog‘ishamol MFY	1,0	253,0
5	Bo‘ston MFY	0,9	227,7
6	Buyukkelajak MFY	1,0	253,0
7	Do‘stlik MFY	0,9	227,7
8	Ibratli MFY	0,8	202,4
9	Istiqlol MFY	0,9	227,7
10	Madaniyat MFY	0,9	227,7
11	Ma’naviyat MFY	0,9	227,7
12	Navbahor MFY	1,0	253,0
13	Na’muna MFY	1,0	253,0
14	Nihol MFY	1,0	253,0
15	Nurafshon MFY	1,0	253,0
16	Obodyurt MFY	1,0	253,0
17	Sayqal MFY	1,0	253,0
18	Sohil MFY	1,0	253,0
19	Taraqqiyot MFY	1,0	253,0
20	Ulug‘yo‘l MFY	0,9	227,7
21	Ulug‘obod MFY	0,9	227,7
22	Shodlik MFY	1,0	253,0
23	Yuksalish MFY	0,8	202,4

24	Yangi hayot MFY	1,0	253,0

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-166-9-130-K/23-son qaroriga
11-ilova

Shahar mahalliy budjetlarining 2024 yil uchun aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

Ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**882686**
	shundan	
1	Guliston shahri	882686